

SHAHAR LANDSHAFTINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

M.S.Akromova

TDI , Phd doctorand

muxlisa92.01@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shahar landshaftini shakllantirish, landshaftni to'g'ri loyihalash parametrlari, landshaft tushunchasi, maqsadli shaharni arxitektura va landshaft yechimlarini shaharlar tizimida atrof-muhitning tabiiy komponentlarini izchil tiklash va optimal taqsimlanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: landshaft, shaharsozlik, barqarorlik, antropogen, tabiiy-quyi tizim, konseptual model.

Аннотация. В статье освещено формирование городского ландшафта, параметры правильного проектирования ландшафта, понятие ландшафта. Архитектурно-ландшафтные решения целевого города для последовательного восстановления и оптимального распределения природных компонентов окружающей среды в системе городов.

Ключевые слова: ландшафт, городское планирование, устойчивость, антропогенный, природный-подсистема, концептуальная модель.

Shaharsozlik ekologiyasini rivojlantirishda ko'p jihatdan olimlarning ekologik muvozanatni saqlashga, hududlarni o'zlashtirish jarayonida tabiiy landshaftlarning tanazzulga uchrashini oldini olishga yordam beruvchi tizimni asoslashda namoyon bo'ldi.

O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bilan hosil bo'lishi atrof-muhit sifati ko'p jihatdan shaharsozlik faoliyatining amalga oshirishiga bog'liqligini, tavsiflovchi asosiy mezonlardan biri "barqarorlik" ekanligini anglashga yordam berdi[1].

Landshaft loyihalash parametrlari sifatida biz: ko'cha belgilari, relyef, hududdan foydalanish, binolar va jamoat joylarining xarakteri, ochiq joy va zichlik, samarali foydalanish uchun Milliy namunaviy loyihalarning muhim tarkibiy qismidir,

boshqalari esa ixtiyoriy. Ikkinchisiga, masalan, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, ammo mahalliy rejalarning boshqa joylarida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan uy-joy standartlarini kirita olamiz.

“Landshaft” tushunchasi ko'pchilik ilmiy tadqiqotchilar tomonidan talqin etilishining xilma-xilligiga qaramasdan (tabiiy-hududiy, tabiiy geografik kompleks va boshqalar), uning eng muhim xususiyati – unda o'zaro yagona ajralmas tizimni tashkil etuvchi o'zaro bog'liq komponentlar mavjudligidir.

Shahar landshaftini ikkita - tabiiy va antropogen quyi tizimlar o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab tizim sifatida tasvirlash ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sirini kuzatib borish imkoniyatini beradi.

“Tabiiy va antropogen tizimlarning o'zaro ta'siri juda katta, biroq ularning bir-biridan asosiy farqi shundaki, tabiiy quyi tizim o'zini o'zi boshqarishga qodir bo'lib, u antropogen quyi tizimning faol ta'siriga muhtoj bo'lmaydi (balki aksincha), antropogen tizim esa, aksincha, butunlay tabiiy tizimga bog'liqdir” [2].

Ma'lum bir xudud landshaftiga, atrof-muhitga nisbatan “barqarorlik” tushunchasini qo'llanilishi, shaharsozlik ekologiyasi sohasi uchun odatiy holga aylanib, o'zining ma'nosini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Sababi shundaki, u maydonni barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Shahar landshaft tizimlarining rivojlanishini va barqarorligi masalalarini o'rganib chiqishda “...barqarorlik deganda tabiiy-antropogen hudud majmualarining (landshaft majmualarining) tashqi ta'sirlari va morfologik tuzilmasini (vertikal va gorizont) saqlab qolish qobiliyati tushunish kerak” deb ta'kidlanadi[3].

Ko'rinib turibdiki, tabiiy holatidagi landshaftning tabiiy tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sir xususiyatlari bunday tizimni o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlariga tayangan holda barqaror holatda saqlashga imkon beradi. Antropogen landshaft esa insonning atrof muhitni ma'lum vazifani bajarishga moslashtiruvchi faoliyatining natijasi bo'lib, bu landshaft butun tizim barqarorligini ta'minlovchi dastlabki aloqalarni yo'qotadi. Tabiiy landshaftning o'zlashtirilgan landshaftga aylanishi texnogen tuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirish bilan birga amalga oshiriladi, bu esa dastlabki barqarorlik holatini saqlab qolishni qiyinlashtiradi.


Shahar landshaftining barqarorligi, deganda, uning tashqi omillari va vaqt ta'sirida o'zining muvozanat holatini saqlab qolish qobiliyatini tushunish mumkin.

Shahar hududini ilmiy asoslangan arxitekturaviy-landshaft rekonstruksiya qilishda muhitning ekologik barqarorligini oshirish maqsadini amalga oshirish mumkin, chunki, ba'zi buzilgan landshaft tarkibiy qismlarini qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lgan boshqa tarkibiy qismlarga almashtirish mumkin. Bunda landshaftlardagi jiddiy darajadagi tanazzulni va qaytarilmas bo'lib tuyuladigan

antropogen o'zgarishlarni ham o'zgartirilgan me'moriy obyektlar bilan uyg'unlashgan holda tabiat o'zining vositalari yordamida bartaraf etish mumkin.

Landshaft loyihalash mutaxassisilari tomonidan shakllantirilgan maqsadli ravishda yaratilgan landshaftlarning tuzilishi uchta asosiy quyi tizimni o'z ichiga oladi:

-tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy (1-rasm). Tabiiy quyi tizim tabiiy resurslar va landshaftning ekologik salohiyatini tashuvchisi hisoblanadi[4].



1-rasm. Tabiiy-antropogen landshaftning konseptual modeli.

Quyi tizimlar: 1 - tabiiy, antropogen transformatsiyalangan; 2 - ishlab chiqarish; 3 – ijtimoiy. Ichki Ichki kommunikatsiyalar: 4 - moddiy-energiya; 5- axborot; 6 - boshqaruv elementlari; 7 - tashqi ulanishlar.

Iqtisodiy - belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlab chiqarish blokini tashkil qiladi. Ijtimoiy - maqsadni belgilash, dasturlash va boshqaruv rolini o'ynaydi. Bunday landshaftlarning normal ishlashi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan majburiy monitoring va tartibga solinishi bilan amalga oshiriladi. Tabiiy va antropogen landshaftlarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari:

- a) resurslarni qayta ishlab chiqaruvchi (qishloq, o'rmon, suv xo'jaligi, sanoat va boshqa landshaftlar);
- b) muhitni shakllantiruvchi (shahar, boshqa turar-joy, rekreatsion landshaftlar);
- v) ekologik (ayniqsa muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hududlarning ekologik asoslari).

Shahar muhitini optimallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish shahar landshaftini doimiy ravishda o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan shahar ob'ektlari va tabiiy majmualar tizimi sifatida talqin qilishni o'z ichiga oladi, ular

orasidagi bog‘lanishlar butun tizimning muvozanatli rivojlanish qobiliyatini belgilaydi.

Landshaft uchun dinamik muvozanat holatini saqlashni ta‘minlaydigan optimallashtirilgan aloqalarni shakllantirish har qanday shaharsozlik faoliyati va "ikkinchi" tabiat elementlarini maqsadli rekreatsiya qilish natijasida uning tabiiy tarkibiy qismlarining o‘zgarishi darajasiga bog‘liq bo‘ladi[5].

Shahar landshaftini o‘zgartirishning ijtimoiy-ekologik jihatlarini olsak, shahar landshaftini o‘zgartirish jarayonini barqaror rivojlanish kontseptsiyasini amalga oshirishga yo‘naltirish zamonaviy shaharsozlikning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, uni ijtimoiy va ekologik jihatlarini hisobga olmasdan hal qilish mumkin emas, chunki ularda, bu sohadagi ko‘plab o‘zgarishlarning determinizmi ham, maqsadli yo‘nalishi ham namoyon bo‘ladi.

Shaharning arxitektura-landshaft tuzilishi tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyatning qabul qilingan qadriyatlar tizimiga, shu jumladan tabiiy resurslarni iste‘mol qilish va qayta ishlab chiqarishga bo‘lgan munosabatiga rioya qilish qobiliyatini aks ettiradi.

Shahar landshafti strukturasi o‘zgarishi umuminsoniy qadriyatlarni, shu jumladan tabiiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan, uzoq tarixiy davr mobaynida haqiqatan ham inson manfaatlariga javob beradigan qadriyatlarni saqlanib qolishga katta xissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. 2030–Yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida// Toshkent sh., 2018–yil 20–oktabr, 841–son.

2. Ryazantsev A.N., Lysenko A.L., Ribalsky N.G., Alexashina N.G., Tetior A.N., Samotesov E.D., Ignatovich I.V. Ekologicheskaya bezopasnost V stroitelnom komplexe. Izdatelstvo Nia-Priroda M.1999 G. 306 s

3. Голубева Е.И., Корол Т.О. Ландшафтно–экологическое планирование городских территорий : практические аспекты . Проблемы региональной экологии. Общественно-научный журнал, №1 2015г. с.152–159.

4. В. А. Николаев, И. В. Копыл, В. В. Сысуев, Природно-антропогенные ландшафты.

5. НЕФЕДОВ ВАЛЕРИЙ АНАТОЛЬЕВИЧ, Архитектурно-ландшафтная реконструкция как средство оптимизации городской среды.